



ORGANIZATION OF LEGAL SUPERVISION BODIES IN TURKESTAN (ON THE EXAMPLE OF THE PROSECUTOR'S OFFICE)

Abdugaffor Abdusamadovich Insopov

Doctor of Philosophy in History (PhD)

Associate Professor of the Department of "Modern History of Uzbekistan"

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: State, prosecutor's office, law, control, law, control, legislation, court, government, commissariat, management, system, body, position, Central Executive Committee, criminal case, obligation.

Abstract: It is known from world practice that since the formation of state relations, the specific rules and regulations in society and the system of laws and regulations established by existing states have been constantly monitored by structures at various levels. This article provides a detailed analysis of the issues related to the organization and activities of prosecutorial bodies in Turkestan.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

TURKISTONDA QONUNCHILIKNI NAZORAT QILISH ORGANLARINING TASHKIL ETILISHI (PROKURATURA ORGANI MISOLIDA)

Abdugaffor Abdusamadovich Insopov

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: abdugaffor_nuz@rambler.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Davlat, prokuratura, huquq, nazorat, qonun, nazorat, qonunchilik, sud, hukumat, komissariat, boshqaruv, tuzum, organ, lavozim, Markaziy Ijroiya Qo'mita, jinoiy ish, majburiyat.

Annotatsiya: Jahon amaliyotidan ma'lumki, davlatchilik munosabatlari shakllangandan davrdan boshlab jamiyatdagi o'ziga hos tartib qoidalar va mavjud davlatlar tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalar tizimi doimiy ravishda turli darajadagi tuzilmalar tomonidan nazorat qilib kelingan. Mazkur maqolada Turkistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va faoliyati bilan bog'liq

ОРГАНИЗАЦИЯ ОРГАНОВ ПРАВОВОГО НАДЗОРА В ТУРКЕСТАНЕ (ПО ПРИМЕРУ ПРОКУРАТУРЫ)**Абдугаффор Абдусамадович Инсопов***Доктор философских наук по истории (PhD)**доцент кафедры “ Новейшая история Узбекистана ”**Национального университета им. Мирзо Улугбека**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Государство, прокуратура, закон, контроль, право, надзор, законодательство, суд, правительство, комиссариат, управление, система, орган, должность, Центральный исполнительный комитет, уголовное дело, обязательство.

Аннотация: Из мировой практики известно, что с момента формирования государственных отношений конкретные нормы порядка в обществе и система законов и нормативных актов, установленные существующими государствами, постоянно контролируются структурами различных уровней. В данной статье представлен подробный анализ вопросов, связанных с организацией и деятельностью прокурорских органов в Туркестане.

Kirish. O'lkada o'tkazilgan oktabr to'ntarilishidan keyin hokimiyatga bolsheviklarning kelishi va yangi tuzum o'rnatilishi natijasida mavjud tuzumni mustahkamlash uchun o'ziga hos tizimga katta extiyoj tug'ildi.

Avvalboshdan mavjud tuzumni mustahkamlash maqsadida Oktabr to'ntarishi amalga oshirilganidan so'ng yangi hukumat tomonidan qabul qilingan ilk qarorlardan biri – bu RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligining “Ishchi militsiyasi to'g'risida”gi qarori edi (1917 yil 28 oktabr). Qarorda ishchi va soldat deputatlari Sovetlari ixtiyorida bo'lgan militsiya organlari butun mamlakatda sovet hokimiyati va proletariat diktaturasini mustahkamlashi kerakligi alohida ko'rsatiladi [1, 2018, 34]. Shu asosda asosiy vazifalar tashkil etilgan militsiya organlari zimmasiga yuklatilgan edi.

Turkiston XKSning birinchi qarori asosida 1917 yil 23 noyabrda O'lka Adliya xalq komissarligi tashkil etildi va XKS tarkibiga kiritildi. RSFSR XKS tomonidan ishlab chiqilgan dekretga asosan 1917 yil 12 dekabrda Turkiston XKSning sud to'g'risida qarori e'lon qilindi. Unda “...o'lkada mavjud sud tashkilotlari, jumladan, okrugdagi sudlar, turli nomlardagi palata va harbiy sudlar faoliyati to'xtatiladi” – deb ko'rsatildi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, eski adliya tizimi, Turkiston okrug harbiy sudi va uning tarkibidagi harbiy prokuratura nazorati 1918 yilning

ikkinchi yarmigacha, Toshkent sud palatasi va uning huzuridagi prokuratura esa 1919 yilgacha faoliyat yuritgan [2, 2018, 36].

Ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa prokuratura organlari faoliyati boshqaruv shakllanayotgan ilk davrlarda yo'lga qo'yilmadi va bu tashkilotlar faoliyatiga ehtiyoj yo'qdek munosabatda bo'lindi.

Bir so'z bilan aytganda Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasida 1922 yilgacha mamlakatda barcha qonunlarni bajarilishi va uni nazorat qilish vazifalari inqilobdan keyin tuzilgan Sovetlar, Sudlar, Xalq komissarlari, militsiya, Favqulodda komissiyalar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshirilgan.

Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasida bu davrga kelib olib borilgan tergov jarayonlari va sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni qonuniyligini nazorat qilishning yagona tizimi mavjud emasligi va mahalliy hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan ko'plab noqonuniy qarorlar davlat manfaatlariga zid ekanligi va davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash, ularni ijrosini nazorat qilish boshqaruvda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli prokuratura organlariga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bordi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman olganda Sovet prokuraturasi Oktabr inqilobidan keyin darhol tashkil etilmadi. Prokuratura organlarini tashkil etilishi bilan bog'liq masalalar yaratilgan adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Prokuratura organlarini tashkil etilishi bilan bog'lik ma'lumotlarni 3 ta guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh adabiyotlariga Rossiya imperiyasining prokuraturasi mehnatkash halqning bostirishi va ularga shavqatsizlarcha munosabatda bo'lganligi sababli eski tuzumdan qolgan boshqaruvdagi meros sifatida qaralganligi uchun prokuratura organlarini tashkil etilishiga ruxsat berilmaganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi guruhga esa Oktabr inqilobidan keyin prokuratura organlariga umuman ehtiyoj tug'ilmaganligi ta'kidlab o'tiladi. Bu o'rinda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qarori bilan "markaziy hukumat farmon va qarorlarining barqaror bajarilishi", "mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqish"ni nazorat qilish majburiyati asosan XKS nazoratida bo'lgan. Shu bilan birga davlatda qonuniylikni nazorat qilish bilan TASSR adliya Komissarligi ham shug'ullandi.

Uchinchi guruh adabiyotlarida esa zarur siyosiy, tashkiliy va huquqiy sharoitlar yo'qligi sababli prokuratura organlarini tashkil etish masalasini hal etishning amalda imkoni bo'lmaganligi qayd etib o'tiladi [3, 1954,107].

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni sovet davrida yaratilgan ko'plab adabiyotlarda uchratish mumkin. Xususan V.R.Mannanov o'zining tadqiqotlarida prokuratura organlarini

tashkil etilishi masalasiga to'htalib, "Yangi qonun ustuvorligini nazorat qiluvchi maxsus organing darhol tashkil etilmasligining sababi sifatida sovet davlati shakllanishi va mustahkamlanishi davrida yangi huquq tizimi asta-sekin kamolotga erishdi va prokuraturani tashkil etilishi obyektiv zarurat sifatida darhol e'tirof etilmadi" –deb izohlab o'tadi [4, 1967, 15]. Shu bilan birga, sovet davlatini birinchi bor dunyoda yangi jamiyat yaratish uchun o'rganilmagan yo'llarni bosib o'tganligi, sotsialistik davlat qurilishida tajribaga ega emasligi asosiy mezon qilib olindi va shuning uchun prokuraturani tashkil etish g'oyasi amaliyotga asoslanib, oktabr inqilobi g'alabasidan bir necha yil o'tgach paydo bo'lishi tabiiy jarayon ekanligi bilan bir qatorda yosh Sovet davlati uchun qonuniylik uchun kurashning to'plangan inqilobiy tajribasi ekanligiga asosiy e'tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etishda mavjud adabiyotlar guruhlariga bo'lingan holda tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillaridan foydalanib, tarixiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Mavjud adabiyotlar va arxiv ma'lumotlarini ilmiy muomilaga kiritishda xronologik usuldan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'lkada prokuratura tizimining joriy etilishi jarayoni Turkiston MIKning 1922 yil aprel oyidagi qarori bilan huquqiy tasdig'ini topib, qarorga asosan "Adliya xalq komissarligi huzurida davlat prokuraturasi bo'limi, viloyatlarda esa xalq sudlari qoshida viloyat davlat prokurori lavozimi ta'sis etildi [5, 1967, 37].

Yangi tashkil etilgan prokuratura organlari faoliyati hususida V.Lenin tomonidan "sotsialistik mamlakatda barcha birdek qonun ustuvorligiga rioya qilishlari keraligi va bunda mehnatkashlar, barcha sovet tashkilotlar va birlashmalari ayniqsa sud va prokuratura organlari qat'iy rioya qilishlari lozimligi" ta'kidlab o'tilgandi [6, 1972, 13]. Prokuror mahalliy hokimyatlar tomonidan chiqarilgan barcha qarorlarni nazorat qilishi va qonunga zid qarorlar qabul qilinganda protest kiritishi kerak va unga bu majburdir – deb ta'kidlab o'tgan edi V.I.Lening prokuraturaning maqsad va vazifalari to'g'risida Rossiya Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosiga yozgan o'sha mashhur "Ikki tomonlama bo'ysinish va qonuniylik" to'g'risidagi xatida [7, 1970, 198-199]. ham keltirib o'tiladi.

Sovet prokuraturasining qonuniy asoslari birinchi marta 1922 yil 28 mayda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 3-sessiyasida qabul qilingan "Prokuratura nazorati to'g'risida"gi Nizomda o'z aksini topdi va Sovet prokuraturasi tashkil etilgan kun sifatida qonunda belgilab qo'yildi [8, 1922].

Ushbu Nizomda Adliya xalq komissarligi tarkibida davlat prokuraturasi tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Tashkil etilgan prokuratura organlari zimmasiga qo'yidagilar:

Aybdorlarga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish va qonunga hilof chiqarilgan qarorlarga protest bildirish yo‘li bilan barcha davlat organlari, xo‘jalik muassasalari, jamoat va xususiy tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning harakatlarining qonuniyligi ustidan davlat nomidan nazoratni amalga oshirish;

Tergov organlarining jinoyatlarni ochish sohasidagi faoliyatini, shuningdek davlat siyosiy boshqaruvi organlari faoliyatini bevosita kuzatib borish;

Sudda ayblovnini qo‘llab-quvvatlash;

Mahkumlarni ushlab turishning qonuniyligi ustidan nazorat qilish yuklatilgan edi.

Bundan tashqari Nizomda Respublika prokurori sifatida Adliya xalq komissari prokuraturaga boshchilik qilishi belgilab qo‘yilgan edi va adliya xalq komissarligi tarkibiga kiruvchi prokuratura respublika prokurorining bevosita nazorati ostida ekanligi qayd etib o‘tilgan edi.

Respublika prokuroriga tasdiqlangan shtatga asosan yordamdamchilar tayinlanishi Nizomda o‘z aksini topdi. Respublika prokurorining yordamchilari Respublika prokurorining taklifiga binoan Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, har bir viloyatda bevosita Respublika prokuroriga bo‘ysunuvchi markaziy boshqaruv xodimlari va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar orasidan Respublika prokurori tomonidan prokuror tayinlanishi va prokurorni lavozimidan ozod etish, boshqa joyga o‘tkazish va lavozimidan chetlashtirish Respublika prokurori tomonidan amalga oshirilishi qayd etib o‘tildi.

Viloyat prokurorlari huzurida esa tegishli viloyat prokurorining taqdimiga binoan Respublika prokurori tomonidan tayinlanadigan va chaqirib olinadigan prokuror yordamchilari bo‘lib, ular o‘rtasi prokuratura organlarining vazifalari taqsimlandi.

Ushbu Nizom bilan Sovet prokuraturasi negizida respublikalarda prokuraturani tashkil etilishi belgilab qo‘yildi. Amalda bu tashkil etilgan prokuratura tizimi markazlashgan holda oliy darajadagi nazoratni amalga oshirish, jamiyatda qonunlar ijrosini so‘zsiz bajarilishini nazorat qilish, barcha vazirliklar va bo‘ysinuvdagi tashkilotlar shuningdek, fuqarolarni haq-huquqlarini himoyalashni amalga oshirishi lozim hisoblanardi.

TASSRda esa “Prokuror nazorati” to‘g‘risidagi Nizom 1922 yil 9 mayda qabul qilingan bo‘lib, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan 3-sessiyada tasdiqlangan “Nizom” dan biroz oldinroq qabul qilingan edi. Shu sababli bu ikki Nizom o‘rtasida ma’lum darajada birbirini inkor qiluvchi holatlar vujudga keldi. Bu o‘z navbatida TASSRda 1922 yil 29 oktabrdan kuchga kirgan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Nizomda bartaraf etildi [9, 1972, 15].

Yangi Nizomga ko'ra, TASSR prokuraturasiga: barcha davlat organlari, xo'jaliklar, jamoat tashkilotlari harakatlarining qonuniyligini nazorat qilish va shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, prokuratura organlari tomonidan qonun hujjatlariga zid ravishda chiqarilgan qarorlar va uni buzgan aybdor shaxslar ustidan protest kiritish;

tergov organlari faoliyatini monitoring qilish;

sudda ayblovni qo'llab-quvvatlash va mahkumlarni ushlab turishning qonuniyligini nazorat qilish vazifalari yuklatildi.

Turkistonda bir paytning o'zida Adliya xalq komissari ham prokuror vazifasini bajardi.

Viloyatlarda esa viloyat prokurorlari va ularning o'rinbosarlari, prokuror yordamchisi, tuman prokurorlari faoliyati yo'lga qo'yildi [10, 1972, 16].

Dastlab TASSRda prokuratura shtat jadvali jami 82 kishi etib belgilangan edi. Ammo hodimlar yetishmasligi sababli bu shtatlarni aksariyatini hodimlar bilan to'ldirish imkoni bo'lmadi.

Amudaryo viloyatida ikkita prokuror yordamchisi o'rniga bittasi faoliyat ko'rsatdi.

Turkiston viloyatida bir necha oy prokuror lavozimi bo'sh qoldi. Jami 8 ta prokuror yordamchisi lavozimidan faqat 4 tasida hodimlar faoliyat olib bordi.

Toshkent shahrida bir yil davomida 5 nafar, Samarqand viloyatida – 3 nafar, Turkmaniston viloyatida – 3 nafar, Amudaryo viloyatida – 8 nafar prokurorlar almashtirildi [11, 1972, 16]. Turkiston prokuraturasida hodimlarning yetishmasligidan tashqari ularning tez-tez o'zgartirilishi, moddiy-texnik holatning og'ir ahvolda ekanligi, idora hujjatlari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va bundan tashqari respublikaning og'ir moliyaviy ahvoli tizim faoliyatidagi katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Turkiston ASSRda prokuratura organlarining tashkil topishi tabiiy va zaruriy jarayon edi. Turkistonda prokuraturani shakllantirish jarayoni RSFSR prokuraturasidan biroz oldinroq boshlanganligi sababli qonuniylikni bir xilda va samarali nazorat qilish maqsadida RSFSR prokuraturasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga barham berilgan va muvofiqlashtirilgan ayrim nomuvofiqliklar mavjud edi. Tadqiqotchilar tomonidan sovet davrida yaratilgan aksariyat adabiyotlarda sovet prokuraturasi tomonidan oktabr to'ntarishidan keyin katta miqyosda boylarni davlat boshqaruviga aralashuviga, jamiyatdagi nohakliklarga, insonlarga nisbatan ta'ziyq va zo'ravonlikni to'htatishiga, sudlar va prokuratura organlarini noqonuniy harakatlarga barham berilgani bilan izohlanadi. Bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyatini ilmiy jihatdan chuqurroq tadqiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Yermetov. O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991 yillar). Toshkent.: 2018. B-34.
2. A.Yermetov. O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991 yillar). Toshkent.: 2018. B-36.
3. С.Г.Березовская. Прокурорский надзор в советском государственном управления. М., 1954. 107 с.
4. В. Р. Маннанов. “Борьба за укрепление социалистической законности в Туркестанской АССР и создание советской прокуратуры, автореферат канд. дисс, Ташкент, 1967, стр. 15.
5. В. Р. Маннанов. “Борьба за укрепление социалистической законности в Туркестанской АССР и создание советской прокуратуры, автореферат канд. дисс, Ташкент, 1967, стр. 37.
6. В.А.Зотов, Г.П.Саркисянц “На страже законности и прав граждан” Общественные науки в Узбекистане. 1972. №5. С-13.
7. В.И.Ленин Полное собрание сочинений, т. 45, стр. 198-199.
8. Постановление от 28 мая 1922 года об утверждении “Положения о прокурорском надзоре”.<https://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=ESU&n=9076#19KWLOUC0fEMaiYw>
9. В.А.Зотов, Г.П.Саркисянц “На страже законности и прав граждан” Общественные науки в Узбекистане. 1972. №5. С-15.
10. В.А.Зотов, Г.П.Саркисянц “На страже законности и прав граждан” Общественные науки в Узбекистане. 1972. №5. С-16.
11. В.А.Зотов, Г.П.Саркисянц “На страже законности и прав граждан” Общественные науки в Узбекистане. 1972. №5. С-16.